



## “TARBIYA” FANI O‘ZLASHTIRISH JARAYONI MONITORINGI

**Tashpulatova Dilorom Mukimovna**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada “Tarbiya” fani o‘zlashtirish jarayoni monitoringi masalasi to‘g‘risida fikr yuritilgan va mazkur ishning amaliy ahamiyati belgilangan.

**Kalit so‘zlar:** tarbiya, o‘zlashtirish, monitoring, bilim, ko‘nikma, malaka, yondashuv.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da mamlakatimiz ta‘lim tizimida o‘quv fanlarini yangicha yondashuvlar asosida o‘qitish vazifalari qo‘yilgan[1]. Shu jihatdan “Tarbiya” fani o‘zlashtirish jarayoni monitoringini tashkil qilish vositasida muhim imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkin. Mazkur o‘rinda ana shu masalaning tahliliga e‘tiboringizni tortamiz.

“Tarbiya” fani o‘zlashtirish jarayoni monitoringi mazmuni. Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘zlashtirish jarayoni monitoringi muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari oliy pedagogik ta‘lim jarayonida mazkur masala bo‘yicha kasbiy ko‘nikmani egallashi zaruriyat hisoblanadi.

“Monitoring” atamasi lotincha bo‘lib, o‘rganaman, kuzataman va tahlil qilaman degan ma‘nolarni anglatadi[2]. Shu jihatdan ta‘lim va tarbiya jarayonida quyidagicha monitoring amalga oshiriladi:

- 1) biror fanning o‘zlashtirilishini o‘rganish va baholash;
- 2) ta‘lim jarayonining sifatini o‘rganish va baholash;
- 3) tarbiya samaradorligini o‘rganish va baholash;
- 4) ta‘lim muassasasi muhiti va sharoitini o‘rganish hamda baholash[3].

Shu ma‘noda “Tarbiya” fanini o‘zlashtirish jarayonini baholash uchun o‘ziga xos monitoring amalga oshiriladi. Boshlang‘ich ta‘limda mazkur fanni o‘zlashtirish jarayoni monitoringi quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- a) fanning mavzularini o‘zlashtirish jarayonini o‘rganish;
- b) fanni o‘qitish asoslarini o‘rganish;
- v) fanning mazmuni va uning boshqa o‘quv fanlari bilan aloqadorligini o‘rganish;
- g) fanni o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlarini o‘rganish.

Bunday o‘rganish jarayonida so‘rovnomalar, test, suhbat, ma‘lumotlarni tahlil qilish kabi vositalardan foydalaniladi. Misol uchun, o‘quvchilar bilan suhbat jarayonida fan asoslarini o‘zlashtirish bo‘yicha juda qiziqarli ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin. Bu ma‘lumotlar ilmiy tahlil qilinib, fanni o‘qitishning istiqbolli yo‘nalishlari ishlab chiqiladi.

Boshlang‘ich ta‘limda “Tarbiya” fanini o‘zlashtirish jarayoni monitoringida avvalo o‘quvchilar tomonidan mavzularning kutilgan darajada o‘zlashtirilishi maxsus test asosida o‘rganiladi. Olingan ma‘lumotlar tahlil qilinib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish



ko'rsatkichlari "qoniqarli", "yaxshi" va "a'lo" belgilar asosida baholanadi. Shuningdek, mazkur monitoring jarayonida fanni o'qitish asoslari, ya'ni o'quv mavzularining materiallari, ko'rgazmali qurollar, to'garaklar va o'qituvchilarning mahorat ko'rsatkichlari ham o'rganilib baholanadi. Shundan so'ng monitoringda mazkur fanning boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o'qitilishi o'rganiladi. Misol uchun, mazkur fan "Texnologiya", "Musiqqa madaniyati" kabi gumanitar fanlar bilan aloqadorlikda o'qitilishi kutilgan samarani beradi. Nihoyat monitoring jarayonida o'tkazilgan monitoring natijalaridan kelib chiqib, ushbu fanni o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Masalan, fanni o'qitishda ekskursiya maktabdan tashqari ta'lim shaklidan foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki ekskursiya jarayonida o'quvchilarning tarbiyaviy ko'nikmalari kuchayadi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayonini monitoring qilishda bir necha metodlarga asolanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday metodlarning amaliy samara beruvchilarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) ilmiylik metodi;
- b) xolislik metodi;
- v) amaliy yo'naltirilganlik metodi;
- g) o'quv-texnik vositalaridan foydalanish metodi.

Bu metodlarga tayangan holda boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoring qilinadi. Misol uchun, xolislik metodiga ko'ra monitoring jarayonida olingan ma'lumotlar to'g'ri va aniq tahlil qilinadi. Monitoring o'tkazuvchilar yoki monitoring ishtirokchilari ma'lumotlarni mavhumlashtirish yoki soxtalashtirishi mumkin emas. Ushbu fanni o'qituvchi pedagoglar monitoring jarayonida ehtiyojlardan kelib chiqib imkon qadar o'ziga xos metodlarga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoringi shakllari. Ta'lim jarayonida monitoring o'tkazishning shakllari ko'p. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoringini amalga oshirishda quyidagi shakllarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) bir ta'lim muassasasida monitoring o'tkazish shakli;
- 2) hudud miqyosida monitoring o'tkazish shakli;
- 3) mamlakat miqyosida monitoring o'tkazish shakli.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayonini bir ta'lim muassasasi asosida monitoring qilish shakli keng ommalashgan. Unga ko'ra, bu shaklda ushbu fanning asoslari, mazmuni, o'qitish metodlari va tajribalari o'rganilib baholanadi. Shu sababli bunday monitoring jarayonida quyidagilarning ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ta'lim muassasasining fan o'qituvchisi;
- ta'lim muammolari bilan muntazam shug'ullanuvchi ilmiy muassasalar vakili;
- fan bo'yicha o'quv adabiyotlari yaratgan mualliflar;
- ta'lim boshqaruvi tashkilotlari vakillari.



Mazkur monitoring ishtirokchilari bir ta'lim muassasasida fanning o'qitilish samaradorligini o'rganib baholaydi. Bunday monitoring shaklidan har ikki o'quv yilida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish bo'yicha hududlar kesimida monitoringni amalga oshirish shakli muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda ushbu fanning quyidagi hududlar kesimida monitoringi amalga oshiriladi:

- tuman va shaharlar kesimidagi monitoring;
- viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi kesimidagi monitoring;
- mamlakat mintaqalari bo'yicha, ya'ni vodi, voha va o'lkaviy hududlar kesimi bo'yicha amalga oshiriladigan monitoring.

Bunday yondashuv mazkur fanning o'zlashtirilish darajasini aniqlash va undagi muammolarni hal etish tadbirlarini bartaraf etish maqsadida monitoringi amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayonini mamlakat miqyosida monitoring qilish har besh yilda bir marotaba amalga oshiriladi. Unda quyidagilar o'rganiladi:

- fan asoslarining samaradorlik ko'rsatkichlari;
- ta'lim jarayonidagi bog'liq fanlar bilan fanning aloqadorlik ko'rsatkichlari;
- fan o'quv materiallarining yangilanib borilishi ko'rsatkichlari.

Buning natijasida boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish va o'zlashtirish asoslarini yangi ehtiyojlarga moslashtirish hamda o'quv materiallarini yangilab borish imkoniyatiga ega bo'linadi.

E'tibor berilsa, "Tarbiya" fanini o'zlashtirishning boshlang'ich ta'lim bosqichidagi jarayonni monitoring qilish o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Shu sababli monitoring shakllarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiradi.

"Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoringining istiqbolli yo'nalishlari.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoringi bo'yicha eng muhim istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kunda mazkur fanni o'zlashtirishning quyidagi istiqbolli yo'nalishlarini eslatib o'tish joiz:

- 1) fanni o'qitishning elektron resursli istiqbolli yo'nalishi;
- 2) fanni o'qitishning individual yondashuv istiqbolli yo'nalish;
- 3) fanni o'qitishning innavatsion istiqbolli yo'nalishi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish va o'qitishning elektron resursli istiqbolli yo'nalishi zamonaviyligi bilan diqqatni tortadi. Unga ko'ra, kompyuterli dastur asosida "Tarbiya" fanining o'quv materiallari elektron shaklda amalga oshiriladi va onlayn tizimi vositasida o'qitish jarayoni tashkil qilinadi. Shu sababli mazkur fanning o'quv materiallarini elektron nusxalarini yaratish va ta'lim muassasalariga taqdim etish dolzarb bo'lib turibdi.



Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish va o'qitishning individual istiqbolli yo'nalishi ham samaradorligi bilan diqqatni tortadi. Unga ko'ra, fan bo'yicha tajribali o'qituvchilarning individual yondashuv metodikalari o'rganilib, mamlakat miqyosida ommalashtiriladi. Buning natijasida fanni o'qitishdagi o'ziga xos individual tajribalar majmuiga ega bo'linadi. Shu jihatdan tajribali o'qituvchilarning individual yondashu o'qitish metodikalarini chuqur o'rganish va bunda talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti imkoniyatlaridan foydalanish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish va o'qitishning innavatsion istiqbolli yo'nalishlari ham jamiyatimiz rivojiga mos ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Unga ko'ra, fanning o'quv materiallari va o'qitish jarayoni raqamli texnologiyalarga asosan tayyorlanadi hamda amalga oshiriladi. Bunda kompyuter, planshet kabi o'quv-texnik vositalar imkoniyatlariga tayangan holda o'quv materiallari tayyorlanib, ta'lim oluvchilarga sillabus shaklida taqdim etiladi. Buning natijasida, misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish ishi bilan shug'ullanadi. O'qituvchi ularni yo'naltirib borish vazifasini bajaradi.

Diqqat qilinsa, "Tarbiya" fanini o'zlashtirish va o'qitishning istiqbolli yo'nalishlarini chuqur o'zlashtirish taqoza etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur ishni maqsadli amalga oshirish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'zlashtirish jarayoni monitoringi o'zining mazmuni, shakllari va istiqbolli yo'nalishlariga egaligi bilan muhim ahamiyatga egadir. Mazkur masallar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning ko'nikmaga ega bo'lishi taqoza etiladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.- Toshkent, 2022
2. Tashpulatova D.M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish.- Toshkent, 2023
3. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at.- Toshkent, 2009.
4. Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X., Egamberdiyeva, N. A. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.
5. Azizovna, E. N. (2023). Autizm sindromli bolalar bilan ishlash hozirgi kunning dolzarb masalasi sifatida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 95-100.
- 6.



7. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoiti – autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. Konferensiya, 1(1), 154-158.
8. Qodirova, F. U.; Egamberdiyeva, N. A. (2023). Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.
9. Azizovna, E. N. (2022). Bolalar serebral falajida o'yinli metodlardan foydalanish. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 207-210.
10. Эгамбердиева, Н. А. (2022). Воспитание у детей трудолюбия с использованием узбекских народных пословиц. Воспитание дошкольников, 1(1), 75-78.
11. Egamberdiyeva, N. A.; Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167.